

Nilufar Xushmatova

Professional ta'limni rivojlantirish instituti

mustaqil izlanuvchisi

nilufarxushmatova90@gmail.com

DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF VOCATIONAL EDUCATION STUDENTS BASED ON INNOVATIVE COOPERATION

Abstract. This article analyzes research studies related to the development of professional competencies among vocational education students and presents the perspectives of relevant specialists on this process. Furthermore, it highlights the necessity of utilizing innovative educational technologies in the development of professional competence through collaborative innovation. Special attention is given to the systematic and methodological support of the educational process, the role of curricula and course programs, and the significant contribution of instructors in ensuring effective competency development.

Key words: Practice, theory, innovation, competence, innovative environment, collaboration, innovative collaboration, social partnership, vocational education.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

Аннотация. В данной статье проанализированы исследования, связанные с развитием профессиональных компетенций студентов профессионального образования, и представлены мнения соответствующих специалистов по этому вопросу. Кроме того, подчёркивается необходимость использования инновационных образовательных технологий для развития профессиональной компетентности на основе сотрудничества. Особое внимание уделяется системному и методическому обеспечению образовательного процесса, роли учебных планов и программ курсов, а также значительному вкладу преподавателей в обеспечение эффективного развития компетенций.

Ключевые слова: Практика, теория, инновация, компетентность, инновационная среда, сотрудничество, инновационное сотрудничество, социальное партнёрство, профессиональное образование.

INNOVATION HAMKORLIK ASOSIDA PROFESSIONAL TA'LIM TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada professional ta'lim talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bog'liq bo'lgan tadqiqot ishlar tahlil qilingan, ushbu jarayonga tegishli mutaxassislarining fikrlari keltirilgan. Shuningdek, innovatsion hamkorlik asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga, ta'lim jarayonini tizimli va uslubiy ta'minlashga katta e'tibor qaratish zarurligi, o'quv rejalar va kurs dasturlarining o'rni hamda o'qituvchining roli muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan

Kalit so'zlar: Amaliyot, nazariya, innovatsiya, kompetensiya, innovatsion muhit, hamkorlik, innovatsion hamkorlik, ijtimoiy hamkorlik. professional ta'lim.

Kirish (Introduction). Bugungi kunda professional ta'limning asosiy maqsadi qilib, o'z kasbini mukammal biladigan va tegishli faoliyat sohaslariga yo'naltirilgan, mutaxassisligi bo'yicha jahon standartlari darajasida samarali ishlashga qodir, doimiy kasbiy o'sishga, ijtimoiy va kasbiy harakatchanlikka tayyor, tegishli ta'lim olishda shaxsning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali, mas'uliyatli, tegishli darajadagi va yo'nalishdagi

malakali ishchini tayyorlash sifatida belgilangan. Professional ta'limida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishda talabalarning kompetensiyalari kasbiy tayyorgarlikning an'anaviy ta'lim modelidan kompetensiyaga asoslangan modelga o'tish orqali shakllanadi, bunda ta'lim maqsadlari talabalarning shaxsiy talablar va kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq. Innovatsion hamkorlik asosida professional ta'lim talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari pedagogik amaliyot uchun katta imkoniyatlarga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili(Literature review). Manbalarda, kasbiy kompetensiya ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradigan bilim, ko'nikma, malakalar va shaxsiy fazilatlar to'plami sifatida belgilanadi[2]. Zamonaviy sharoitda professional ta'lim talabalarning kasbiy kompetensiyalarini samarali shakllantirishga yordam beradigan innovatsion texnologiyalar va texnikalarni faol ravishda birlashtiradi. Bu jarayonda o'qituvchilar, talabalar va professional jamoalar vakillari o'rtasidagi innovatsion hamkorlik muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [3].

Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. Kompetensiyalar bo'lajak mutaxassislarning professional muhitda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishiga imkon beradigan bilim va ko'nikmalar darajasini belgilaydi.

A.M.Aronov kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda pedagogika va psixologiya muhim o'rin tutishini qayd etadi. Ular o'quv dasturlari va o'qitish uslublarini ishlab chiqish uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi deb ta'kidlaydi [4]. Zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'limga yondashuvlar talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi, bu Ashanina va boshqalarning fikriga ko'ra, kompetensiyalarni shakllantirishning ajralmas elementi hisoblanadi [3].

E.P. Belozershev professional ta'lim nafaqat bilimlarni uzatishga, balki haqiqiy kasbiy faoliyatda dolzarb bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [5]. V.P. Bepalko tomonidan taklif qilingan yondashuvlar o'quv jarayonini tizimli va uslubiy qo'llab-quvvatlashga asoslangan va har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradi [6].

L.I. Bojovichning so'zlariga ko'ra, shaxsiyatni shakllantirish kasbiy kompetensiyalarni egallash jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar nafaqat bilimlarni to'plash, balki talabaning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga ham e'tibor berishlari kerak [7].

O.S.Gibelgauz asosiy e'tiborni psixodidaktikaning uslubiy muammolariga qaratadi, kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirish uchun ta'limdagi psixologik jarayonlarni chuqur tushunish muhimligini ta'kidlaydi[8]. O.N.Kalachikova e'tiborni o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga kirish bosqichlariga qaratadi, bu ham o'quv jarayonining sifatiga ta'sir qiladi [9].

Shunday qilib, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yondashuvlar xilma-xil bo'lib, ko'plab omillarga, jumladan, fanning o'ziga xos xususiyatlariga, talabalarning individual xususiyatlariga, shuningdek, o'qitishning uslubiy va psixologik jihatlariga bog'liq.

Zamonaviy mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion hamkorlik asosiy o'rin tutadi. Ta'kidlash joizki, ta'lim sohasidagi innovatsiyalar nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish, balki ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari bilan faol hamkorlikni ham nazarda tutadi.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yondashuvlar innovatsion usullar va texnologiyalar tufayli sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. Xususan, E.N. Ashanina kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyatini ta'kidlaydi [3]. Buni Kalachikovaning tadqiqotlari tasdiqlaydi, u o'qituvchilarning innovatsion faoliyatiga kirish bosqichlariga e'tibor qaratadi, hamkorlik va tajriba almashish muhimligini ta'kidlaydi [9].

Talabalarning innovatsion kompetensiyalarini shakllantirish, zamonaviy ta'lim o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi ta'lim va o'zaro munosabatlarga yangi yondashuvlarni talab qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, Dj.Raven kompetensiyani zamonaviy jamiyat kontekstida ko'rib chiqadi, asosiy e'tiborni kasbiy fazilatlarni aniqlash, rivojlantirish va amalga oshirishga qaratadi [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari murakkab ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning markaziy qismi talabaning shaxsiyati hisoblanadi. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarni birlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligi va qobiliyatini shakllantirishdir. Shu sababli, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda shaxsning individual xususiyatlarini ham, ijtimoiy-madaniy kontekstni ham hisobga olish kerak.

Zamonaviy o'quv jarayonida yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi pedagogik jarayonda o'qitish metodlari va texnologiyalar asosiy o'rin tutadi va innovatsion hamkorlik sharoitida ularning ahamiyati ortib boradi. Chunki, ushbu texnologiyalar talabalarning bilim olish faolligini oshirish va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi, bu esa kompetensiyalarni shakllantirish uchun muhimdir. Yangi metodlar va texnologiyadan samarali foydalanish talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon beradi, bu esa ularni kelajakdagi kasbga tayyorlash uchun asosdir. Shuningdek, ta'lim texnologiyalar turli sohalaridagi bilimlarning integratsiyalashuvini ta'minlaydi, bu esa talabalarda kasbiy faoliyatga har tomonlama qarashni shakllantirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, ilm-fan va texnikaning doimiy o'zgarib turadigan, jadal rivojlanib borayotgan sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik vositalaridan yana biri ta'lim jarayonini tizimli va uslubiy ta'minlashdir. Bu professional ta'limning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan turli xil o'qitish metodlari va usullaridan kompleks foydalanishni nazarda tutadi. O'qituvchilar ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni kiritish zarurati bilan duch keladilar, bu esa ularni doimiy ravishda o'rganish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishni talab qiladi. O'qitishning yangi metodlari va texnologiyalarini tadqiq etish, kasbiy seminar va amaliy mashg'ulotlarda qatnashish o'qituvchilik faoliyatining ajralmas qismiga aylanadi.

Zamonaviy o'qitishning asosiy tamoyili talabalarning mustaqil ishlashiga e'tibor berishdir. Bu ularga nafaqat kasbiy, balki shaxsiy kompetensiyalarni ham rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mustaqil ishning borishini nazorat qilish pedagogik faoliyatning muhim qismi bo'lib qolmoqda.

Kompetensiyalarni rivojlantirishda pedagogik yordam muhim rol o'ynashini ham ta'kidlash joiz. Mutaxassislar tayyorlash har bir talabaning salohiyatini maksimal darajada oshirishga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni talab qiladi.

Kompetensiyalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari - talaba psixikasining xususiyatlarini, pedagogik metodlar va texnologiyalarni bilishni, shuningdek, ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olgan holda murakkab tizimdir. Bu elementlarning barchasi o'zaro bog'langan va bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lib, talabalar o'rtasida malakalarning samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda kompetensiyalarni rivojlantirishda o'quv rejalar va kurs dasturlarining o'rni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular bilimlarni yetkazish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi, birgalikda bo'lajak mutaxassisning kasbiy malakasini belgilaydi. Mutaxassislar tayyorlash sifati va ularning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish ta'lim dasturlarini to'g'ri tuzish va uslubiy ta'minotga bog'liq.

Shuningdek, o'quv faoliyati jarayoni mustaqil fikrlashni rivojlantirishga, bilimlarni amalda qo'llash qobiliyatiga va doimiy kasbiy o'sishga tayyorlikni shakllantirishga yordam beradigan tarzda tashkil etilishi kerak.

Innovatsion hamkorlik doirasida talabalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga alohida e'tibor qaratiladi. Asosiy maqsad shundan iboratki, talabalar ma'lumotni passiv tarzda o'zlashtiribgina qolmay, balki olgan bilimlarini amalda qo'llay oladilar. Bunday yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, jamoada ishlash va murakkab muammolarni hal qilishni o'rganish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Talabalar uchun tadqiqot faoliyatining ahamiyatini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, chunki bu ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining

asosiy jihati hisoblanadi. Birinchidan, ilmiy faoliyat talabalarda tanqidiy fikrlashni, ma'lumotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ikkinchidan, ilmiy faoliyat talabalarga ularning keyingi kasbiy o'sishi uchun zarur bo'lgan tadqiqot usullarini o'zlashtirishga imkon beradi. Uchinchidan, ilmiy faoliyat talabalarga ma'lum bir sohada o'z bilimlarini chuqurlashtirish va ularni qiziqtirgan masalalarni o'rganish imkoniyatini beradi, bu esa o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, tadqiqot faoliyati talabalarining ijodkorligi va innovatsion tafakkurini rag'batlantiradi. Professor-o'qituvchilar tarkibini to'g'ri tashkil etish va qo'llab-quvvatlash bilan talabalar yangi usullar, texnologiyalar va tushunchalarni yaratish orqali ilmiy bilimlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shishlari mumkin.

Biroq, talabalarining ilmiy sohadagi salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun ularga tegishli shart-sharoitlarni yaratish kerak. Bunga ilmiy ishning barcha bosqichlarida moddiy-texnik ta'minot (laboratoriyalar, kutubxonalar, tadqiqot markazlari) va uslubiy ta'minot kiradi. Nafaqat yaxshi jihozlangan laboratoriyalar va ilmiy materiallardan foydalanish talabalarining ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli qiladi. Shu nuqtai nazardan, Moir va Strong ta'kidlanganlaridek, talabalarining ilmiy ko'nikmalarini rivojlantirishda mentorlik va murabbiylik muhim rol o'ynaydi[10].

Bo'lajak tadqiqotchilarni tayyorlashning yana bir muhim jihati ularning o'zini tarbiyalash qobiliyatini shakllantirishdir. Natijada shuni aytish mumkinki, ta'lim muassasalari va ularning professor-o'qituvchilari talabalarining ilmiy faoliyatini rag'batlantirishning yangicha yondashuv va uslublarini izlashlari kerak. Shunday qilib, o'qituvchi, murabbiy va talabalarining birgalikdagi sa'y-harakatlari va innovatsion hamkorligi natijasida har bir yosh tadqiqotchining ilmiy salohiyatini yuksaltirish uchun qulay shart-sharoit yaratish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Shunday qilib, innovatsion hamkorlik nafaqat yangi ta'lim metodikalaridan faol foydalanishni, balki ta'lim jarayonining turli ishtirokchilarining mustahkam o'zaro aoqasini ham nazarda tutadigan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish vositasiga aylanadi. Zamonaviy ta'lim o'zgaruvchan sharoitlarga doimiy moslashishni talab qiladi va aynan innovatsion yondashuvlar bunday moslashuvni ta'minlashga imkon beradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, innovatsion hamkorlik zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan yuqori sifatli va zamonaviy ta'lim beradigan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. Равен, Дж. Компетентност в современном обществе: выявление, развитие и реализация / Дж. Равен. — Москва, 2002. — 396 с.
3. Ашанина, Е.Н. Современные образовательные технологии: учебное пособие для вузов / Под редакцией Е.Н. Ашаниной, О.В. Васиной, С.П. Ежова. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2022. — 165 с.
4. Аронов А.М. Психология и педагогика.- Красноярск: СФУ, 2007.-71 с.
5. Белозерцев, Е. П. Педагогика профессионального образования: учебное пособие для студ. высш. учеб. заведений / Е. П. Белозерцев [и др.] / под ред. В. А. Сластёнина. — 3-е изд., стер. — Москва: «Академия», 2007.- 307
6. Беспалко, В.П. Системно-методическое обеспечение учебно- воспитательного процесса подготовки специалистов /В. П. Беспалко, Ю. Г. Татур. — Москва: Высшая ж, 2013. — 37 с.
7. Божович, Л.И. Избранные психологические труды. Проблемы формирования личности / Л. И. Божович ; под ред. Д. И. Фелдштейна. — Москва : Издательство Московского института практической психологии, 2015. — 212 с.
8. Гибелгауз О.С. Методологические проблемы психодидактики. Профессиональное образование в России и за рубежом. 2012; 2 (6): 50 - 54.

9. Калачикова О.Н. Исследование содержания и этапов вхождения педагогов в инновационную деятельность // Вестник Томского государственного университета. - 2008. - № 316. - С. 174-177.
10. Моир Еллен. Асселератинг Теачер Еффестивенесс: Лессонс Леарнед фром Two Десадес оф New Теачер Индустион. // Пхи Делта Каппан. - 91.2 (Ост. 2009). - Р. 18-24.
11. D.Sayfullayeva, A. Zhuraev, D.Jalolova, I.Savrieva. Improving the quality of education in higher educational institutions with the using innovative educational technologies Cite as: AIP Conference Proceedings 2647 (1) Conference Proceedings. Published Online: 01 November 2022 y. (Scopus Conference). Pg, 1-6.
12. Kh.S. Akhmadov, N.M. Nazarova, A.R. Juraev, I.Y. Avezov "Technical and economic analysis, calculation and justification of hydrogen production through solar thermochemical reactor in Republic of Uzbekistan E3S Web of Conferences 524, 01016 (2024) APEC-VII-2024. (Scopus Conference).
13. А.Р. Жураев. "Проблема компьютеризации учебных процессов "Academy" научно-методический журнал № 11 (62) / Россия, Москва. 2020. – С. 28 – 31.
14. А.Р. Жураев. "Методика применения виртуальных лабораторий в обучении предметам гидравлики и теплотехники // LXII International correspondence scientific and practical conference «International scientific review of the problems and prospects of modern science and education» (Boston. USA. September 22-23). 2019. –Р. 48-50.
15. Жураев А.Р. "Метод эффективного использования технических средств обучения в организации учебного процесса в направлении «технологическое образование». Научно-методический журнал «Вестник науки и образования». Москва, 2020-г. № 19 (97). Часть 2. С 38 – 41.
16. Жураев А.Р., Бахранова У.И. "Использование задач и понятий, относящихся к геометрическим фигурам, для интегрированного обучения трудовому образованию с предметом геометрия". "Достижения науки и образования" ежемесячный научно – методический журнал № 7 (8) / 2016 – г. Россия, Москва, с 83 – 85.
17. Zhuraev A.R. "Types of education and importance of ensuring the coherence of education content in terms of subject. "Science and world" International scientific journal. № 7 (35) / 2016, Russia Volgograd. Pg, 67-69.
18. А.Р. Жураев. Выбор оптимизированного содержания трудового образования и методика его обучения. (5A112101–Методика трудового обучения), Ташкент–2014 г. с 107.
19. Жураев А.Р. "Совершенствование методики формирования профессиональных компетенций будущих учителей на основе программных средств обучения". Автореферат диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам. 13.00.05 – Теория и методика профессионального образования. Ташкент – 2019 г. с 56.